



NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA XUSHMUOMALALIK NUTQIY AKTLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Axmadjonov Nurbek Zokirjon o'g'li,
Farg'ona davlat universiteti,
nemis va fransuz tillari kafedrasi v.b. dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqola nemis va o'zbek tillarida xushmuomalalik nutqiy aktlarining o'ziga xos jihatlari tahlil qiladi. Maqolada xushmuomalalikning jamiyatdagi o'rni, til va madaniyat bilan bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Nemis va o'zbek tillaridagi xushmuomalalik aktlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning rasmiy va norasmiy so'zlashuvdagi ahamiyati, shuningdek, madaniy va ijtimoiy kontekstlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ushbu ikki tilda xushmuomalalikni ifodalashda yuzaga keladigan farqlar va o'xshashliklar hamda ularning muloqotdagi roli muhokama qilinadi. Maqola tilshunoslik, madaniyatshunoslik va pragmatika sohalaridagi tadqiqotlarga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: xushmuomalalik, nutqiy aktlar, formallik va norasmiylik, madaniyatshunoslik, kommunikativ pragmatika, hurmat ifodasi, samimiylik, kontekstual tahlil, ijtimoiy munosabatlar

ОСОБЕННОСТИ РЕЧЕВЫХ АКТОВ ВЕЖЛИВОСТИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: Эта статья анализирует особенности речевых актов вежливости в немецком и узбекском языках. Рассматривается роль вежливости в обществе и её связь с языком и культурой. В статье исследуются уникальные характеристики актов вежливости в обоих языках, их значение в формальном и неформальном общении, а также проводится анализ на основе культурных и социальных контекстов. Кроме того, статья обсуждает различия и сходства, возникающие при выражении вежливости в этих двух языках, а также их роль в коммуникации. Статья вносит вклад в исследования в области лингвистики, культурологии и прагматики.

Ключевы слова: вежливость, речевые акты, формальность и неформальность, культурология, коммуникативная прагматика, выражение уважения, искренность, контекстуальный анализ, социальные отношения

THE DISTINCTIVE FEATURES OF POLITENESS SPEECH ACTS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation: This article analyzes the distinctive features of politeness speech acts in German and Uzbek languages. It explores the role of politeness in society and its connection to language and culture. The article examines the unique characteristics of politeness acts in both languages, their significance in formal and informal communication, as well as their analysis based on cultural and social contexts. Additionally, the article discusses the differences and similarities that arise in expressing politeness in these two languages, along with their role in communication. The article contributes to research in the fields of linguistics, cultural studies, and pragmatics.

KIRISH

Nutqiy aktlar va xushmuomalalik jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, til orqali madaniyatni ifodalovchi muhim vositalardan biridir. Har bir tilda xushmuomalalikni ifodalash usullari jamiyatning madaniy, ijtimoiy va tarixiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Xushmuomalalikning tildagi aks-sadolarini tahlil qilish, o‘sha tildagi ijtimoiy va madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analar, shuningdek, muloqotda ko‘rsatiladigan hurmat va samimiyatni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu maqolada nemis va o‘zbek tillaridagi xushmuomalalik nutqiy aktlarining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Nutqiy aktlarning o‘ziga xosligi tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘zaro munosabatlarda hurmat va ehtiyotkorlikni namoyon qilish vositalari sifatida tilning eng ajralmas elementlaridan biridir.

MANBA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Nemis tilshunosligida xushmuomalalik nutqiy aktlarining tadqiqotiga hissa qo‘shgan ba‘zi olimlar quyidagilar:

Siegfried Jäger “Diskurs und Deutung” (Diskurs va talqin). Jäger, nutqiy aktlar va ularning ijtimoiy ma’nolarini o‘rganadi hamda xushmuomalalikni kommunikatsion jarayonlar va ijtimoiy diskurs kontekstida tahlil qiladi. [1,12].

Karl Bühler die Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache (Til nazariyasi: Tilning ta’riflovchi funksiyasi) Bühlerning asari, nutqiy aktlar va ularning til orqali ijtimoiy muloqotda qanday rol o‘ynashini o‘rganadi, bu orqali xushmuomalalikning tilshunoslikdagi o‘rni haqida ma’lumot beradi [2, 32].

Wolfgang Hübner “Sprechakttheorie und Pragmatik“ (Nutqiy aktlar nazariyasi va pragmatika). Hübner nutqiy aktlar nazariyasining pragmatik jihatlari o‘rganadi, xushmuomalalikni ijtimoiy kontekstda qanday amalga oshirilishini tahlil qiladi [3, 376].

Ruth Wodak “Die Disziplin der Diskursanalyse“ (Diskurs tahlilining dasturi). Wodak diskurs va xushmuomalalikni tahlil qilishda nutqiy aktlarni, ijtimoiy kuchlar va tilshunoslikka asoslanib o‘rganadi [4, 450].

Trost, K. “Zur wissenschaftsgeschichtlichen Priorität in der Urheberschaft der Sprechakttheorie“ (Nutqiy aktlar nazariyasining muallifligi bo‘yicha ilmiy tarixiy ustunlik). Ushbu ishda Trost Sprechakttheorie (so‘zlashuv aktlari nazariyasi) ning ilmiy tarixiy rivojlanishidagi prioritet masalalarini o‘rganadi. Maqola nazariyaning dastlabki mualliflik huquqiga oid ilmiy bahslarni ko‘rib chiqadi va uning rivojlanishiga olib kelgan asosiy falsafiy va lingvistik oqimlarni tahlil qiladi [5, 73].

Ulkan, M. “Zur Klassifikation von Sprechakten. Eine grundagentheoretische Fallstudie“ (Nutqiy aktlarni tasniflash. Asosiy nazariy tadqiqot). Ulkan ushbu asarida so‘zlashuv aktlarini tasniflashning nazariy asoslarini o‘rganadi. Muallif, Sprechakttheorie asosida turli kommunikativ aktlarning tasniflanishini, ularning nazariy asoslarini va amaliy qo‘llanilishini chuqur tahlil qiladi [6, 251].

Viehweger, D. “Semantik und Sprechakttheorie“ (Semantika va nutqiy aktlar nazariyasi). Viehweger bu ishida semantika va so‘zlashuv aktlari nazariyasining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qiladi. Maqola, zamonaviy semantika tadqiqotlari kontekstida so‘zlashuv aktlari nazariyasining o‘rni va uning tilshunoslikka qo‘shgan hissasini ko‘rsatadi [7, 136].

Bu olimlar va ularning tadqiqotlari nemis tilshunosligida xushmuomalalik masalasini turli nuqtai nazardan, jumladan pragmatik, semantik va madaniy kontekstlardan o‘rganishga katta hissa qo‘shgan. Ularning ishlaridagi asosiy maqsad tilning ijtimoiy va madaniy funktsiyalarini, xushmuomalalikni ifodalashda qanday qat’iy va ijtimoiy normativlarni ko‘rsatish, shuningdek, tilning turli shakllarida ehtiyotkorlik va hurmatni qanday aks ettirishni tushunishdir.

O‘zbek tilshunosligida xushmuomalalik sohasida tadqiqotlar olib borgan olimlar va ularning ilmiy izlanish mavzulari quyidagicha ifodalanishi mumkin:

Babaeva, G.S. “Nemis, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi xushmuomalalik konseptining lingvomadaniy tadqiqi“. Tadqiqotda uch tildagi xushmuomalilik ifodalarining strukturasi, semantik xususiyatlari va ularning milliy mentalitet bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Muallif Brown va Levinson (1987) xushmuomalalik nazariyasiga asoslanib, turli tillar orasidagi farqlar va o‘xshashliklarni aniqlaydi [8].

Jalilova, Z.O. “Ingliz va o‘zbek tillarida xushmuomalalik nutqiy harakatlarining gender xususiyatlari“. Muallif erkak va ayollarning muloqot jarayonida xushmuomalalik strategiyalaridan foydalanish uslublarini qiyoslab, ularning psixologik va sotsiokulturni ta’sirini o‘rganadi [9].

Kasimova, Z. O‘zbek va ingliz tillarida xushmuomalalik mezonlari: pragmatik tahlil“. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida xushmuomalalikning lingvistik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi [10, 102-115].

Tursunova, M. “O‘zbek jamiyatida xushmuomalalikning ijtimoiy va madaniy xususiyatlari“. Maqolada xushmuomalalik tushunchasi O‘zbekiston jamiyatining ijtimoiy-madaniy kontekstida o‘rganilgan. Muallif, xushmuomalalik fenomenini milliy mentalitet, an’anaviy qadriyatlar va ijtimoiy rollar bilan bog‘lab, uning shakllanish omillarini tahlil qiladi [11, 55-68].

Rahimova, D. “O‘zbek tilida xushmuomalalik mezonlari va lingvistik omillar“. Ushbu maqolada o‘zbek tilida xushmuomalalikni shakllantiruvchi asosiy lingvistik omillar va nutqiy birliklar tahlil qilinadi. Muallif, xushmuomalalikni ifodalovchi so‘zlar, iboralar va sintaktik tuzilmalarning semantik hamda pragmatik jihatlarini o‘rganib, ularning ijtimoiy kontekstga bog‘liqligini ko‘rsatadi [12, 45-58].

Yusupova, G. “Xushmuomalalik nutqiy aktlari va ularning o‘zbek tilidagi ko‘rinishlari“. Maqolada xushmuomalalik bilan bog‘liq nutqiy aktlar Searle (1969) tomonidan ilgari surilgan nutqiy aktlar nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Muallif, o‘zbek tilida ijobiy va salbiy xushmuomalalik strategiyalarining qanday qo‘llanilishini ko‘rsatib, ularning turli kommunikativ kontekstlardagi rolini o‘rganadi [13, 78-90].

NATIJALAR

Tahlil qilishda aniqlanganidek, nemis tilida xushmuomalalik ko‘proq rasmiylik, qat’iyat va formalizmga asoslanadi, bu esa nemis tilidagi muloqotda to‘liq hurmatni aks ettirishga xizmat qiladi. O‘zbek tilida esa xushmuomalalik ko‘proq samimiylik, mehribonlik va o‘zaro munosabatlarda noziklikni namoyon qiladi. Shu bilan birga, har ikkala tilda ham, xushmuomalalik ijtimoiy va madaniy qadriyatlar, o‘zgalar bilan muloqotda ehtiyotkorlikni va hurmatni ifodalovchi eng muhim vosita sifatida muhim o‘rin tutadi. Bu tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida xushmuomalalikni turli jihatlardan o‘rganish, til va muloqotda xushmuomalalikning o‘rnini, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarni, va madaniy xususiyatlarni tushunishga yordam beradi.

MUHOKAMA

Nemis va o‘zbek tillaridagi xushmuomalalik nutqiy aktlarining farqlari, asosan, madaniy va ijtimoiy normaga asoslangan. Nemis tilida rasmiylik, qat’iyat va an’anaviylik ko‘proq e’tiborga olinadi, bu tilda ijtimoiy tuzilish va hurmatning yuqori darajada ifodalanganligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida esa xushmuomalalikni ko‘proq samimiylik va mehribonlik orqali namoyon qilish ahamiyatlidir. Biroq, har ikki tilda ham nutqiy aktlar o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi va muloqotda odamlar o‘rtasida hurmat va ijtimoiy normani saqlashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Quyida har ikkala tildagi muhim jihatlariga alohida e’tibor qaratib, batafsil tahlil qilamiz.

Xushmuomalalik - bu boshqa odamga hurmat ko‘rsatish, muloyim, yengil, odobli va ijobiy munosabatda bo‘lishni bildiradi. Nutqiy aktlar esa til orqali amalga oshiriladigan harakatlardir; bu harakatlar insonlar o‘rtasidagi muloqotda o‘zaro munosabatlar va ijtimoiy normani ifodalashda xizmat qiladi. Xushmuomalalik nutqiy aktlari esa bu jarayonda hurmat va ehtiyotkorlikni, muloyimlikni, samimiylikni va ijtimoiy normaga rioya qilishni namoyon qiladi. Nutqiy aktlar, o‘z navbatida, har bir xalqning ijtimoiy tizimi, til va madaniyatiga xos tarzda shakllanadi va rivojlanadi.

Nemis tilida xushmuomalalik nutqiy aktlari: nemis tilida xushmuomalalik nutqiy aktlari aniq, qat’iy va rasmiy bo‘lishi bilan ajralib turadi. Germaniya va boshqa nemis tilida

so‘zlashuvchi mamlakatlarda, o‘ta rasmiy va tartibli nutqiy aktlar mavjud. Nemis tilidagi xushmuomalalikni ifodalashning ba’zi xususiyatlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Rasmiy va norasmiy so‘zlashuv: nemis tilida “**Sie**” (siz) va “**Du**” (sen) shakllari orqali rasmiy va norasmiy nutq ajratiladi. “**Sie**” rasmiy, hurmatli murojaat shaklidir, ko‘pincha kattalar va tanish bo‘lmagan odamlar uchun ishlatiladi. “**Du**” esa do‘stona va norasmiy munosabatda bo‘lish uchun ishlatiladi. Rasmiylik madaniyati nemis tilida aniq va qat’iy ifodalanadi. Misol uchun, Germaniyada ish muhitida yoki akademik sohada “**Sie**” shakli ishlatish jamiyatda hurmatni ko‘rsatishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Ko‘plab formal so‘zlar: nemis tilida xushmuomalalik ko‘pincha formal so‘zlar orqali ifodalanadi. “**Bitte**” (iltimos), “**Danke**” (rahmat), “**Entschuldigung**” (uzr) kabi iboralar muloqotda ko‘p ishlatiladi. Bu so‘zlar hurmat va muloyimlikni namoyon qilish uchun muhim vositalardir. Masalan, “**Entschuldigung, können Sie mir bitte helfen?**” (Uzr, menga yordam bera olasizmi?) kabi ibora xushmuomalalikni va ehtiyotkorlikni ifodalashning yaxshi misolidir.

An’anaviy nutqiy strukturalar: nemis tilida xushmuomalalik an’anaviy va qat’iy tuzilishga ega. Muloqotda rasmiy tilni ishlatish madaniy normaga, jamiyatda hurmat ko‘rsatishning muhim belgisi hisoblanadi. Rasmiy til yordamida bir-biriga izzat va hurmat ko‘rsatiladi. Masalan, biznes muloqotida yoki muhokamalarda qatnashishda, rasmiy so‘zlar ishlatish, hatto xohlagan odamlar bilan do‘stona muloqotda bo‘lsangiz ham, madaniyatda muhim o‘rin tutadi.

Quyida fikrimizni bir necha misollar orqali dalillaymiz:

Biznes muloqotda: “Nemis tilida biznes muhokamalarida rasmiy tildan foydalanish zarur. Masalan, biror ishbilarmon bilan telefon orqali muloqot qilishda, **Guten Tag, Herr Müller, wie kann ich Ihnen helfen?** (Salom, janob Müller, sizga qanday yordam bera olishim mumkin?) deb so‘rash odat hisoblanadi. Bu, albatta, izzatni ko‘rsatish va professionalizmni ta’minlash uchun muhim.”

Rasmiy salomlashish: “Nemis tilida, ayniqsa, tanish bo‘lmagan kishilar bilan uchrashganda rasmiy til ishlatiladi. Masalan, **Sehr geehrte Frau Meier, es ist mir eine Freude, Sie kennenzulernen.** (hurmatli Meier xonim, sizni tanishganimdan xursandman.) Bu ibora, o‘zaro hurmat va rasmiy aloqalarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi.”

Formallikni saqlash: “Shuningdek, nemis tilida do‘stona muloqotda ham, rasmiy tilni ishlatish zarur. Misol uchun, siz biror kishi bilan uzoq vaqt davomida yaxshi tanish bo‘lgan bo‘lsangiz ham, rasmiy so‘zlar ishlatish, ya’ni **Könnten Sie mir bitte helfen?** (iltimos, menga yordam bera olasizmi?) deb so‘rash, madaniyatda hurmatni saqlashning bir usulidir.”

Ishonchli va hurmatli muhit yaratish: “Nemis tilida muloqotda izzat va hurmatni ko‘rsatish uchun rasmiy til ishlatish muhim. Masalan, ofis muhitida, **Entschuldigen Sie bitte, können wir einen Termin vereinbaren?** (iltimos, kechirasiz, biz uchrashuv belgilay olishimiz mumkinmi?) kabi iboralar ishlatish odatiy. Bu so‘zlar odamlar o‘rtasida ishonchli va hurmatli muhitni yaratadi.”

O‘zbek tilida xushmuomalalik nutqiy axtlari: o‘zbek tilida xushmuomalalik nutqiy axtlari ko‘proq samimiylik, mehribonlik va muloyimlikka asoslangan. O‘zbek madaniyatida, xushmuomalalik nafaqat til orqali, balki harakatlari va ijtimoiy munosabatlar orqali ham ifodalanadi. O‘zbek tilidagi xushmuomalalikning ba’zi xususiyatlarini quyidagicha ajratib ko‘rsatish mumkin:

Rasmiy va norasmiy so‘zlashuv: o‘zbek tilida ham rasmiy va norasmiy so‘zlashuv mavjud. Rasmiy so‘zlashuvda “**Siz**” shakli ishlatiladi, “**Sizga**” yoki “**Sizning**” kabi iboralar hurmatni bildiradi. Norasmiy so‘zlashuvda esa “**Sen**” shakli ishlatiladi va bu do‘stona yoki tanishlar o‘rtasidagi muloqotga xosdir. Masalan, “**O‘zingizni yaxshi his qilyapsizmi?**” kabi rasmiy ibora bilan salomlashish, kattalarga hurmatni bildirgan bo‘ladi.

Tez-tez mehribonlikni ko‘rsatish: o‘zbek tilida xushmuomalalik, ko‘pincha “**Rahmat**”, “**Itimos**”, “**Yordam bera olishim mumkinmi?**” kabi so‘zlar orqali ifodalanadi. Bu iboralar muloqotda odamlar o‘rtasidagi mehribonlikni va hurmatni namoyon qilishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, biror yordamni so‘rashda “**Itimos, yordam bera olasizmi?**” kabi iboralar ishlatiladi, bu ibora xushmuomalalik va ehtiyotkorlikni bildiradi.

Xushomadli samimiylikni ifodalovchi gaplar va iboralar: o‘zbek tilida bu kabi ko‘plab so‘z va iboralar mavjud. Masalan, **Sizni ko‘rganimdan xursandman!** (samimiy va iliq qarshi olish), **Yaxshi keldingiz!** (mehmonni kutib olishda ishlatiladigan xushmuomala so‘z), **Sizning yordamingizni hech qachon unutmayman!** (yordamga bo‘lgan samimiy minnatdorchilik), **Sizning tabassumingiz meni quvontiradi!** (tabassumni qadrlash va ilqlikni ifodalash), **Sizni yaxshi ko‘raman!** (samimiy munosabatni bildirib, hurmat ko‘rsatish), **Sizning fikrlaringizni juda qadrlayman!** (fikrlar va maslahatlarni hurmat bilan qabul qilish), **Siz juda mehribon va samimiy insonga o‘xshaysiz!** (kishi xulq-atvorini va xususiyatlarini maqtash) **Siz bilan vaqt o‘tkazish juda yoqadi!** (suhbat va muloqotni qadrlash), **Har doim do‘stligingizni hurmat qilaman!** (do‘stlik va samimiy munosabatlarni qadrlash). **Sizning yordamlaringiz men uchun juda muhim!** (yordamni samimiy ravishda qadrlash) kabi so‘zlar o‘ziga xos hurmatni ifodalaydi. Ushbu so‘zlar ijtimoiy pozitsiyaga qarab turli xil vaziyatlarda ishlatiladi va shaxsga hurmatni bildirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy qoidalarga amal qilish: o‘zbek madaniyatida xushmuomalalik faqat til bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy qoidalarga amal qilish ham muhimdir. Misol uchun, salomlashish, keksalar oldida o‘tirish yoki ovqatlanish kabi odatlar xushmuomalalikning asosiy qismlaridan biridir. Jamiyatda o‘zaro hurmat va mehribonlik ko‘rsatish o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Nemis va o‘zbek tillarida xushmuomalalik nutqiy axtlarining o‘zaro farqlari quyidagi jihatlar asosida tahlil qilinadi:

Rasmiylik va formalik: nemis tilida rasmiylik va formalizm ancha kuchliroq va qat’iyroq ifodalanadi. Rasmiy murojaat shakllari va aniqlik, nemis tilidagi xushmuomalalikning asosiy jihatlarini hisoblanadi. O‘zbek tilida esa ko‘proq samimiylik va do‘stona munosabatlar ustuvor bo‘ladi. O‘zbek tilida do‘stona munosabatda rasmiy shakllardan foydalanishning zarurati yo‘q.

Hurmat va kattalarga muloqotda yondashuv: o‘zbek tilida hurmat va muloyimlik katta ahamiyatga ega. O‘zbek madaniyatida keksalar, usta yoki ota-onaga xushmuomalalik ko‘rsatiladi. Nemis tilida ham hurmatni ifodalash muhim, lekin rasmiylik va tartibga yanada ko‘proq e‘tibor qaratiladi.

So‘zlashuvdagi ochiqlik va samimiylik: O‘zbek tilida xushmuomalalik ko‘pincha samimiylikni bildiradi. O‘zbek tilida insonlar bir-biriga ko‘proq samimiy so‘zlar bilan murojaat qilishadi. Nemis tilida esa, muloqotda aniq va qat’iy til ishlatiladi, samimiylik ko‘proq individual holatlarda ko‘rinadi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, nemis va o‘zbek tillarida xushmuomalalik nutqiy aktlarining o‘ziga xos jihatlari ularning madaniyatiga, ijtimoiy normaga va tarixiy an‘analarga asoslanadi. Nemis tilida rasmiylik va qat’iyatlilik asosiy ahamiyatga ega bo‘lsa, o‘zbek tilida esa samimiylik va mehribonlik xushmuomalalik nutqiy aktlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Nemis tilida xushmuomalalik rasmiylik va tartibga, o‘zbek tilida esa samimiylik va mehribonlikka asoslanadi. Har ikkala tilda ham, xushmuomalalik odamlar o‘rtasidagi hurmat va munosabatlarni tartibga soluvchi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Nutqiy aktlar orqali til nafaqat axborot uzatadi, balki ijtimoiy munosabatlar va madaniy xususiyatlarni ham ifodalaydi. Ma’lumki, har bir jamiyat o‘zining til va madaniy xususiyatlariga asoslanib, xushmuomalalikni ifodalashda o‘ziga xos yondashuvni rivojlantiradi, bu esa global miqyosda muloqotda va o‘zaro aloqalarda o‘zgarishlar keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jäger, S. Diskurs und Deutung. Auflag, Munster: 2001. S. 258
2. Bühler, K. Die Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache. Tübingen, Printed in German: 1934. S.467
3. Hübner, W. Sprechakttheorie und Pragmatik. Hannover:1983. S.450-491
4. Ruth Wodak. Die Disziplin der Diskursanalyse. Frankfurt a.M:2008. S. 73-104
5. Trost, K., Zur wissenschaftsgeschichtlichen Priorität in der Urheberschaft der Sprechakttheorie, in: Perspektiven der Philosophie, 24, 1998. S. 251-271
6. Ulkan, M., Zur Klassifikation von Sprechakten. Eine grundlagentheoretische Fallstudie, Tübingen 1992. S. 236
7. Viehweger, D., Semantik und Sprechakttheorie, in W. Motsch & D. Viehweger (Hrsg.), Richtungen der modernen Semantikforschung, Berlin 1983. S. 321
8. Babaeva, G.S. “Nemis, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi xushmuomalalik konseptining lingvomadaniy tadqiqi“, (PhD) dissertatsiya, Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus, O‘zbekiston: 2023.
9. Jalilova, Z.O. “Ingliz va o‘zbek tillarida xushmuomalalik nutqiy harakatlarining gender xususiyatlari“ (PhD) dissertatsiya, Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston: 2023

10. Kasimova, Z. O‘zbek va ingliz tillarida xushmuomalalik mezonlari: pragmatik tahlil. O‘zbek tilshunosligi jurnali, 2020. N: 4, 102-115.

11. Tursunova, M. O‘zbek jamiyatida xushmuomalalikning ijtimoiy va madaniy xususiyatlari. Madaniyatshunoslik va tilshunoslik masalalari, 2019. N: 5, 55-68.

12. Rahimova, D. O‘zbek tilida xushmuomalalik mezonlari va lingvistik omillar. Til va adabiyot tadqiqotlari, 2018. N:3, 45-58.

13. Yusupova, G. Xushmuomalalik nutqiy aktlari va ularning o‘zbek tilidagi ko‘rinishlari. Filologiya masalalari, 2015. N:2, 78-90.